

## **SO‘ZLARNING SHAKL VA MA‘NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI**

**Ilmiy rahbar: Abdupattayev G‘ulomjon G‘ofurjon o‘g‘li**

**Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrası o‘qituvchisi**

**E-mail: [abdupattayevgulomjon98@gmail.com](mailto:abdupattayevgulomjon98@gmail.com)**

**Tursunaliyeva Dilnoza Sherzodjon qizi**

**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi**

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21165445>**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari, xususan, ko‘p ma‘noli so‘zlar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlarning leksik-semantik xususiyatlari yoritiladi. So‘zning tashqi shakli va ichki mazmuni o‘rtasidagi munosabat til tizimining muhim qonuniyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Maqolada mazkur birliklarning nutqdagi vazifasi, ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilarda lug‘at boyligini oshirishdagi imkoniyatlari misollar asosida ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z shakli, so‘z ma‘nosi, leksikologiya, ko‘p ma‘nolilik, omonim, sinonim, antonim, paronim, nutq madaniyati.

### **Аннотация**

В данной статье освещаются виды слов в узбекском языке с точки зрения соотношения формы и значения, в частности лексико-семантические особенности многозначных слов, омонимов, синонимов, антонимов и паронимов. Соотношение внешней формы слова и его внутреннего содержания рассматривается как одна из важных закономерностей языковой системы. В статье на основе примеров раскрываются функции данных языковых единиц в речи, их значение в образовательном процессе, а также возможности расширения словарного запаса учащихся.

**Ключевые слова:** форма слова, значение слова, лексикология, многозначность, омоним, синоним, антоним, пароним, культура речи.

### **Abstract**

This article examines the types of words in the Uzbek language according to the relationship between form and meaning, with particular attention to the lexical-semantic features of polysemous words, homonyms, synonyms, antonyms, and paronyms. The relationship between the external form of a word and its internal meaning is interpreted as one of the important regularities of the language system. The article illustrates, through examples, the functions of these linguistic units in speech, their significance in the educational process, and their potential for enriching pupils' vocabulary.

**Keywords:** word form, word meaning, lexicology, polysemy, homonym, synonym, antonym, paronym, speech culture.

### **Kirish**

Til inson tafakkuri, muloqoti va madaniy tajribasini ifodalovchi eng muhim vositadir. Til birliklari orasida so‘z alohida o‘rin tutadi, chunki inson o‘z fikrini aynan so‘zlar yordamida ifodalaydi. Har bir so‘z tashqi shakl va ichki ma‘nodan tashkil topadi. Shakl so‘zning tovush yoki yozuvdagi ko‘rinishini bildirsa, ma‘no shu shakl orqali anglashiladigan tushuncha va mazmunni ifodalaydi.



Soʻz shakli va maʼnosi oʻrtasidagi munosabat har doim ham oddiy va bir xil boʻlavermaydi. Baʼzi soʻzlar bir shaklda bir nechta maʼnoni bildiradi, ayrim soʻzlar esa shaklan bir xil boʻlsa-da, mutlaqo boshqa-boshqa maʼnolarni anglatadi. Shuningdek, tilimizda maʼnosi yaqin, qarama-qarshi yoki talaffuzi oʻxshash boʻlgan soʻzlar ham mavjud. Bunday hodisalarni oʻrganish oʻzbek tili leksikologiyasining muhim masalalaridan biridir. [2; 4; 8]

Mavzuning dolzarbligi shundaki, soʻzlarning shakl va maʼno munosabatini chuqur bilish oʻquvchilarning lugʻat boyligini kengaytiradi, nutqiy aniqlikni oshiradi, matnni toʻgʻri tushunish va ifodali bayon qilish koʻnikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim jarayonida mazkur mavzuni misollar asosida oʻrgatish oʻquvchilarning ona tiliga qiziqishini kuchaytiradi.

Maqolaning maqsadi soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra asosiy turlarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish hamda ularning nutqdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

#### **Asosiy qism**

Oʻzbek tilida soʻzlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra turli guruhlariga ajratiladi. Bular orasida koʻp maʼnoli soʻzlar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlar alohida oʻrin egallaydi. Ushbu birliklar tilning lugʻat tarkibini boyitadi, nutqning ifodaliligi va taʼsirchanligini taʼminlaydi.

**Koʻp maʼnoli soʻzlar.** Bir soʻzning ikki yoki undan ortiq maʼnoda qoʻllanishi koʻp maʼnolilik deyiladi. Koʻp maʼnoli soʻzlarda maʼnolar oʻrtasida ichki bogʻlanish boʻladi. Masalan, bosh soʻzi odamning tana aʼzosi maʼnosida ham, rahbar maʼnosida ham, narsaning yuqori qismi maʼnosida ham ishlatiladi. Ushbu maʼnolar oʻrtasida maʼlum semantik aloqadorlik mavjud. Koʻp maʼnolilik til taraqqiyoti davomida maʼno kengayishi, maʼno koʻchishi va obrazli qoʻllanish natijasida yuzaga keladi. Bunday soʻzlar matn mazmuniga qarab anglanadi. Demak, koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻrganishda kontekst muhim ahamiyatga ega. [8]

Omonimlar. Shakli bir xil, ammo maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar omonimlar deb ataladi. Masalan: ot – hayvon nomi, ot – ism, ot – uloqtirmoq maʼnosidagi feʼl; yoz – fasl nomi, yoz – xatni yozmoq, yoz – dasturxonni yozmoq feʼlining buyruq shakli; suz – suvda suzmoq, suz – ovqatni suzmoq, suz – biror hayvon suzishi kabi. Bu soʻzlarda shakliy oʻxshashlik mavjud, lekin maʼnolar oʻrtasida bogʻlanish mavjud emas. Koʻrinadiki, omonim soʻzlar bir necha soʻz turkumi doirasida ham (ot va feʼl), bir soʻz turkumi doirasida ham kelishi mumkin.

Omonimlar lugʻaviy va grammatik xususiyatlariga koʻra farqlanadi. Lugʻaviy omonimlarda soʻzlarning yozilishi va talaffuzi bir xil boʻladi, maʼnolari esa turlicha boʻladi. Grammatik omonimlarda esa bir xil shakl turli grammatik vazifalarni bajaradi. Masalan, yoz soʻzi ot sifatida faslni bildiradi, feʼl sifatida esa harakatni ifodalaydi. [2; 4]

Omonimlar badiiy nutqda, ayniqsa, soʻz oʻyini, hazil, kinoya va tajnis sanʼatini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ular matnga obrazlilik va taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Shu bilan birga, omonimlarni toʻgʻri anglash uchun gap mazmuni va matn kontekstiga eʼtibor berish zarur.

**Sinonimlar.** Maʼnosi bir-biriga yaqin, shakli esa har xil boʻlgan soʻzlar sinonimlar deyiladi. Masalan: *chiroyli, goʻzal, koʻrkam; mehnatsevar, tirishqoq, ishchan; asramoq, saqlamoq* yoki *oraz, uzor, rux, ruxsor, chehra, jamol, yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq* kabi soʻzlar sinonimik qator hosil qiladi. Sinonimlar nutqda bir xil soʻzni takrorlashning oldini oladi va fikrni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Sinonimik qatorda maʼnosi nisbatan betaraf va koʻp qoʻllanadigan soʻz **dominanta**, yaʼni bosh soʻz hisoblanadi. Masalan, *chiroyli soʻzi goʻzal, koʻrkam, suluv* kabi soʻzlarga nisbatan

umumiyroq qo’llanishi mumkin. Sinonimlarni o’rinli tanlash nutq madaniyatining muhim belgilaridan biridir. [4]

Sinonimik qatordagi so’zlar ma’nosiga ko’ra, qo’llanish doirasiga ko’ra farqlanishi mumkin.

**Antonimlar.** Qarama-qarshi ma’noni bildiruvchi so’zlar antonimlar deb ataladi. Masalan: *yaxshi – yomon, katta – kichik, oq – qora, shirin – achchiq*. Antonimlar predmet, belgi, holat yoki harakatning qarama-qarshi tomonlarini ifodalaydi.

Antonimlar nutqda taqqoslash, qarama-qarshi qo’yish va fikrni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Xalq maqollari, badiiy asarlar va publitsistik nutqda antonimlardan keng foydalaniladi. Masalan, “*Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar*” maqolida *yaxshi* va *yomon* so’zlari orqali axloqiy qarama-qarshilik ifodalangan. [4]

**Paronimlar.** Talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma’nosi farqli bo’lgan so’zlar paronimlar deyiladi. Masalan: *shoh – shox, asr – asir, nufuz – nufus, dalil – dadil*. Paronimlarni farqlamaslik nutqda ma’no xatolariga olib keladi. Shuning uchun bu birliklarni o’rganish savodxonlik va nutq aniqligini ta’minlashda muhimdir. [1; 2; 4]

Paronimlar, ayniqsa, yozma nutqda ehtiyotkorlikni talab qiladi. O’quvchilar paronim so’zlarning ma’nosini izohli lug’at asosida o’rganib, ularni gaplarda to’g’ri qo’llashga odatlanishi zarur. Masalan, *nufuz* so’zi *obro’-e’tibor* ma’nosini bildirsa, *nufus – aholi soni* ma’nosida qo’llanadi.

Ta’lim jarayonida shakl va ma’no munosabatiga ko’ra so’z turlarini o’rgatish amaliy mashqlar bilan uyg’un olib borilishi lozim. Masalan, o’quvchilarga omonim so’zlar ishtirokida gap tuzdirish, sinonimik qator hosil qildirish, antonim juftliklarni topdirish, paronimlarning ma’nosini izohlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday mashqlar o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, lug’at boyligi va nutqiy savodxonligini rivojlantiradi. [2; 4; 6]

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari o’zbek tilining leksik-semantik tizimini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ko’p ma’noli so’zlar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlar til boyligini namoyon etuvchi birliklar bo’lib, ular nutqning aniqligi, rang-barangligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi. [2; 4; 8]

Mazkur mavzuni o’rganish o’quvchilarda so’z ma’nosini kontekst asosida anglash, kerakli so’zni o’rinli tanlash, fikrni ifodali bayon qilish kabi ko’nikmalarni shakllantiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida so’zlarning shakl va ma’no munosabatini nazariy tushuntirish bilan cheklanmasdan, uni amaliy misollar, matn tahlili va ijodiy topshiriqlar orqali o’rgatish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hojiyev A. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Mirzayev M., Asqarova M., Bozorov O. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: O’zbekiston, 2010.
3. G’aniyev F. O’zbek tilida so’z yasalishi. – Toshkent: Universitet, 2001.
4. Abdullayev A., Qodirov A. O’zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1998.
5. Karimov Sh., Rasulov M. O’zbek tili grammatikasi (Morfologiya). – Toshkent: Fan, 2005.
6. Qilichev E. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2012.
7. Yusupov U. Umumiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
8. Sodiqov Q. O’zbek tilida ko’p ma’nolilik va omonimiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1993.



9. Sayfullayev M. O‘zbek tilshunosligi. – Toshkent: Noshir, 2014.
10. Saussure F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent: Fan, 2002.
11. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). Factors and methods of preparing students for professional activities in the conditions of individual training. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.
12. Olimovich, P. O. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17-20.
13. Mushtariy, O. (2023). Odiljon P. Boshlang ‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. *qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 640-644.
14. G‘ulomjon filolog: NO, P. The Harmony Of Characters’ Speech And Psychological Portrayal In Nabijon Boqi’s “A Tale Of One Love”.
15. G‘ulomjon filolog: Khodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). The Problem of Era and Hero in the Work of Murad Muhammad Dost. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 77-81.